



MAKTAB PSIXOLOGINING O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDAGI O'RNI

Xasanova Jumagul Valijon qizi

Andijon viloyati Baliqchi tumani 12-DIMI psixologi

Xojimatova Gulshanoy Najmidin qizi

Andijon viloyati Baliqchi tumani 37-maktabning psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab psixologining ish faoliyati, uning vazifalari, o'quvchilar bilan bo'lgan muloqoti xaqida batafsil yoritib o'tilgan. Muallif o'z so'zi orqali ta'lim tizimidagi o'ziga hos jihatlar, ta'limda pedagogik texnologiyalarning qo'llashning afzalliklari, o'quvchilar dunyoqarashining rivojlanishida maktab psixologining o'rne va ahamiyatini yaqqol ifodalagan.

Kalit so'zlar: Malaka, tajriba, adaptatsiya, kommunikatsiya, kasbiy tanlov.

Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O'zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo'lgan insonning ma'naviyatini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda tajriba va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Demak, bugungi kun mutaxassisi o'z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda kasbiy o'zlikni anglash muammosi davr talabidir. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov: "...yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz aholisining ongu-tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan



o'zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo'lgan munosabati, tobora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi" – deb ta'kidlaydi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ayniqsa, insonning tarbiyalanganligini, balki, eng avvalo, u bashariyat tomonidan jamlangan amaliy tajribalarni o'zlashtirib olishni nazarda tutish zarur.

Kasb-hunar egallashida shaxsning yangi integrativ sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, uni kasbiy mahorat va kasbiy yetuklikka yo'naltirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Unda o'qituvchining turli sifatlari majmuasi o'z aksini topadi.

Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish muammosi faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va metodistlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Biroq shuni ta'kidlash joizki, hozirgacha bu murakkab ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalovchi, uning ta'limni takomillashtirish sharoitidagi aniq xususiyatlarini mujassamlashtirilgan kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatga moslashish konsepsiyasi ishlab chiqilgan emas. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirishga ehtiyoj mavjud bo'lib, uning obyektiv muammolari ham ko'zga tashlanmoqda. Bu muammolarni aniqlash va hal etish yo'llarini topishning zaruriy dasturlarini amalga oshirish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan o'quv-dasturiy hujjatlar tahlili ularning quyidagi davr talablariga javob bera olmasligini ko'rsatdi:

- o'quv rejalarida o'quvchilarning bo'lajak kasbiy faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan maxsus fanlarni o'rganishga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan;
- mutaxassislikning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilarni o'quv ishlab-chiqarish va pedagogik amaliyotlarining zamon talabi darajasida yo'lga qo'yilmaganligi;
- ayrim o'quv fanlarining mazmunan bir-birini takrorlashi, ya'ni ular orasida izchillik, uzviylik va fanlararo aloqadorlikni o'rnatilmaganligi;



- umumta'lim fanlarining mazmunida kasbiy yo'nalganlik ta'minlanmaganligi;
- nashr etilgan darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar hamda didaktik tarqatma materiallarning hozirgi kun talablarini yetarlicha qondira olmasligi;
- ta'limning moddiy-texnik, ilmiy-metodik jihatdan zamonaviy talablar darajasida jihozlamaganligi. Abu Nasr Forobiyning ta'kidlashicha, "ta'lim-degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatlarni birlashtirish tarbiya esa, shu xalq o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish uchun biz pedagoglar shunday bir uzluksiz tizimni ishlab chiqishimiz kerakki, natijada o'quvchilarning hohlagan kasblarini tanlashga asos bo'lsin. Masalan: kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish;

- kasb-hunar kolleji o'quvchilarini o'quv faoliyatida foydalaniladigan o'quv metodik manbaalar chop etilgan adabiyotlar mazmuniga kasb-hunarga yo'naltirishning muayyan o'quv majmuasini yaratish lozim;

-kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda muassasalarda shart-sharoitlar yaratish lozim;

- kollejlarda kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha seminarlar tashkil qilish;

-ishlab chiqarish korxonalaridagi zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish;

- kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalarini yaratish lozim;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi keltirilganlarni barchasi, farzandlarimizning o'z istagidagi kasbni tanlashiga imkon yaratilishi mumkin.



Farzandlarimizning kelajagini to'g'ri yaratish, biz pedagoglar va ota-onalarning vazifasi hamda burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. Xalq so'zi 2012 y 8 dek.
2. Breslav G.M. Emotsionalniye osobennosti formirovaniya lichnosti v detstve: norma i otkloneniya. – M.: Pedagogika, 1990. – 140 s.